

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	21
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
Xakimov Zafar Ibragimovich	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI	38
Xaydarova Yorqinoq Asqar qizi	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА	50
Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ	56
Халтурдиев Айтмурат Маратович	
О'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI	64
Satova Lolaxon Ergashevna	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI	71
Pulatov Abdullo	



INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI



Pulatov Abdullo

Namangan davlat texnika universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida assistent o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi
E-mail: abdullox022287@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion yondashuvlar asosida oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlari kompleks tarzda tadqiq etiladi. Tadqiqotda zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalar faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etishning ahamiyati, ularning ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot sifati hamda bozor ulushiga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Xususan, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, resurs tejamkor ishlab chiqarish hamda innovatsion marketing yondashuvlarining korxonalar raqobatbardoshligini oshirishdagi roli tahlil qilinadi.

Shuningdek, innovatsion faoliyatni rivojlantirishda investitsion muhit, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda kadrlar salohiyatining ahamiyati alohida ko'rib chiqiladi. Maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarining innovatsion rivojlanish darajasini baholash iqtisodiy ko'rsatkichlar va indikatorlar tizimi asosida amalga oshirilgan. Tadqiqot natijasida innovatsiyalarni samarali joriy etish orqali korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash va ularning milliy hamda xalqaro bozorlardagi raqobat ustunligini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion yondashuvlar, raqobatbardoshlik, oziq-ovqat sanoati, kichik biznes, raqamli texnologiyalar, ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot sifati, innovatsion marketing, investitsion muhit, davlat qo'llab-quvvatlashi, avtomatlashtirish, resurs tejamkorlik, iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Abstract. This article comprehensively examines the mechanisms for enhancing the competitiveness of food industry enterprises based on innovative approaches. The study scientifically substantiates the importance of introducing innovations into enterprise activities in modern economic conditions, as well as their impact on production efficiency, product quality, and market share. In particular, the role of digital technologies, automated management systems, resource-efficient production, and innovative marketing approaches in increasing enterprise competitiveness is analyzed.

Additionally, the importance of the investment environment, state support mechanisms, and human capital in the development of innovative activities is highlighted. The article evaluates the level of innovative development of food industry enterprises based on a system of economic indicators and metrics. As a result, scientific and practical recommendations have been developed to ensure sustainable development through the effective implementation of innovations and to strengthen competitive advantages in both national and international markets.

Keywords: innovative approaches, competitiveness, food industry, small business, digital technologies, production efficiency, product quality, innovative marketing, investment environment, state support, automation, resource efficiency, economic indicators.

Аннотация. В данной статье комплексно исследуются механизмы повышения конкурентоспособности предприятий пищевой промышленности на основе инновационных подходов. В исследовании на научной основе раскрывается значение внедрения инноваций в деятельность предприятий в современных экономических условиях, а также их влияние на эффективность производства, качество продукции и долю рынка. В частности, анализируется роль цифровых технологий, автоматизированных систем управления, ресурсоэффективного производства и инновационных маркетинговых подходов в повышении конкурентоспособности предприятий.

Кроме того, отдельно рассматривается значение инвестиционного климата, механизмов государственной поддержки и кадрового потенциала в развитии инновационной деятельности. В статье уровень инновационного развития предприятий пищевой промышленности оценивается на основе системы экономических показателей и индикаторов. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации, направленные на обеспечение устойчивого развития предприятий за счёт эффективного внедрения инноваций и укрепление их конкурентных преимуществ на национальном и международном рынках.

Ключевые слова: инновационные подходы, конкурентоспособность, пищевая промышленность, малый бизнес, цифровые технологии, эффективность производства, качество продукции, инновационный маркетинг, инвестиционный климат, государственная поддержка, автоматизация, ресурсоэффективность, экономические показатели.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy raqobatning keskinlashuvi sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni ta'minlash va uni barqaror oshirib borish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, innovatsion yondashuvlar asosida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish hamda yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bugungi kunda iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlariga aylangan. Oziq-ovqat sanoati aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bir qatorda, eksport salohiyatini oshirish, hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi [1].

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, innovatsiyalarni keng joriy etish hamda kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, PQ-104-sonli Prezident qarori doirasida oziq-ovqat sanoatida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va eksportbop mahsulotlar ulushini oshirish vazifalari belgilangan. Ushbu qaror sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, PF-60-sonli Prezident farmoni bilan iqtisodiyotning real sektorini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda innovatsion iqtisodiyotga o'tishni ta'minlash asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Mazkur farmon oziq-ovqat sanoatida ham zamonaviy boshqaruv tizimlari, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, PQ-4302-sonli Prezident qarori orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, oziq-ovqat sanoatida klaster tizimini rivojlantirish hamda qiymat zanjirini kengaytirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Bu esa oziq-ovqat korxonalarida innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ularning raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur institutsional asoslarni yaratadi [2].

Shu nuqtayi nazardan, oziq-ovqat korxonalarida innovatsion yondashuvlar asosida raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish hamda ularni amaliyotga joriy etishning samarali yo'llarini ishlab chiqish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda o'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan oziq-ovqat sanoatida innovatsion rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshirish masalalari yangi yondashuvlar asosida o'rganilmoqda. Xususan, D. Teshaboyev tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoatida qo'shimcha qiymat zanjirini rivojlantirish orqali korxonalar raqobatbardoshligini oshirish mumkinligi asoslab berilgan. Uning fikricha, xomashyoni chuqur qayta ishlash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish korxonalarining eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi [3].

M. Raximov esa raqamli iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat korxonalarida boshqaruv tizimlarini avtomatlashtirish va "aqli ishlab chiqarish" elementlarini joriy etish samaradorlikni oshirishda muhim omil ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, N. Ismoilova tadqiqotlarida kichik biznes subyektlarida innovatsion marketing strategiyalarini qo'llash orqali ichki va tashqi bozorlarda barqaror raqobat ustunligini shakllantirish mumkinligi ilmiy asosda yoritilgan [4].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xorijiy tadqiqotlarda innovatsion rivojlanish va raqobatbardoshlik o'rtasidagi bog'liqlik yanada chuqurroq tahlil qilinadi. Masalan, Erik Brynjolfsson raqamli texnologiyalarni joriy etish korxonalarining umumiy unumdorligini oshirishda muhim omillardan biri ekanini ko'rsatadi [5]. Philipp Sandner innovatsion ekotizimlar va texnologik platformalar kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [6]. Shuningdek, Mariana Mazzucato davlatning innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashdagi faol roli korxonalar rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishini asoslab beradi [7].

Mazkur maqolada yuqoridagi ilmiy qarashlarga tayangan holda tizimli yondashuv asosida tadqiqot olib borildi. Metodologik jihatdan iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, kontent tahlil hamda induktiv va deduktiv usullardan foydalanildi. Shuningdek, oziq-ovqat korxonalarida raqobatbardoshlikni baholashda ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion faollik, raqamlashtirish darajasi va marketing samaradorligi asosiy indikatorlar sifatida qabul qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashib, korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim omilga aylanmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-2024-yillarda oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari o'rtacha 105-107 foizni tashkil etgan bo'lib, bu tarmoqning barqaror rivojlanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni joriy etgan korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi an'anaviy korxonalariga nisbatan 1,2-1,4 barobar yuqori ekanini kuzatilmogda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat korxonalarida raqobatbardoshlik asosan uchta asosiy yo'nalishda shakllanadi: ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion faollik hamda bozor faoliyati (marketing va eksport). 2024-yil yakunlariga ko'ra, innovatsion texnologiyalarni joriy etgan kichik oziq-ovqat korxonalarida mahsulot tannarxi o'rtacha 8-10 foizga kamaygan, mahsulot sifati va standartlarga moslik darajasi esa sezilarli darajada oshgan. Bu holat ularning ichki va tashqi bozorlarda raqobat ustunligini yanada mustahkamlashiga xizmat qilgan.

Moliyaviy ko'rsatkichlar ham innovatsion yondashuvlarning ijobiy natijalarini tasdiqlaydi. Jumladan, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanayotgan korxonalarda rentabellik darajasi 2022-yildagi 11,5 foizdan 2024-yilda 14,8 foizga oshgan. Shu bilan birga, eksport ulushi ham 18 foizdan 22 foizga yetgani kuzatilmogda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, barcha korxonalarda innovatsiyalarni joriy etish darajasi hali bir xil darajada shakllanmaganligi sababli tarmoq bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarni yanada oshirish imkoniyatlari mavjud [9].

Quyidagi jadvalda oziq-ovqat sanoatida innovatsion yondashuvlar asosida raqobatbardoshlikni aks ettiruvchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar keltirilgan.

1-jadval. Oziq-ovqat sanoatida innovatsion yondashuvlar asosida raqobatbardoshlikni asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Innovatsion korxonalar ulushi (%)	18,5	21,3	24,7
Ishlab chiqarish samaradorligi (indeks, %)	100	106	112
Rentabellik darajasi (%)	11,5	13,2	14,8
Eksport ulushi (%)	18,0	20,5	22,0
Mahsulot tannarxining kamayishi (%)	–	6,5	9,2

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar ulushi yil sayin ortib bormogda, bu esa ishlab chiqarish samaradorligi va rentabellik darajasining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatmogda. Shu bilan birga, eksport ulushining o'sishi mahsulotlarning xalqaro standartlarga tobora moslashib borayotganini anglatadi. Mahsulot tannarxining kamayishi esa innovatsiyalar natijasida resurslardan samarali foydalanish darajasi oshganini ko'rsatadi.

Shuningdek, innovatsion yondashuvlar oziq-ovqat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib, ularni keng joriy etish orqali tarmoqning umumiy samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi [10].

Olib borilgan tahlillar natijalari oziq-ovqat sanoatida innovatsion yondashuvlar korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Xususan, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda resurs tejankor texnologiyalardan foydalanish mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilashga

xizmat qilmoqda. Bu esa korxonalar uchun ichki bozorda barqaror pozitsiyalarni mustahkamlash bilan birga, eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun qulay sharoit yaratadi [11].

Shu bilan birga, tahlillar innovatsion faoliyatning barcha korxonalarda bir xil darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, kichik biznes subyektlarida moliyaviy resurslarning cheklanganligi, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda yuqori texnologiyalarni joriy etish uchun zarur infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa innovatsion rivojlanish jarayonining notekis shakllanishiga sabab bo'lib, ayrim korxonalar o'rtasida raqobat tafovutining yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, marketing va boshqaruv tizimlarining yetarli darajada innovatsiyalashmaganligi ham raqobatbardoshlikni to'liq ta'minlash imkoniyatlarini cheklaydi. Ko'plab korxonalarda raqamli marketing, brending va bozor segmentatsiyasi yetarli darajada rivojlanmaganligi mahsulotlarni samarali realizatsiya qilishga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, innovatsiyalarni faqat ishlab chiqarish jarayonida emas, balki boshqaruv va marketing tizimlarida ham kompleks tarzda joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi [12].

Umuman olganda, oziq-ovqat korxonalarida innovatsion yondashuvlar asosida raqobatbardoshlikni oshirish tizimli va uzluksiz jarayon bo'lib, u davlat qo'llab-quvvatlashi, moliyaviy mexanizmlar, texnologik rivojlanish hamda kadrlar salohiyati bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoatida innovatsion yondashuvlar asosida raqobatbardoshlikni oshirish bugungi kunda kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda tarmoqda ishlab chiqarish hajmi va kichik biznes ulushining ortib borayotgani ijobiy tendensiya sifatida baholanadi, shu bilan birga, raqobatbardoshlik darajasi korxonalar kesimida turlicha shakllanayotgani kuzatiladi. Bu holat innovatsion faoliyatning yetarli darajada keng joriy etilmaganligi, texnologik yangilanish ehtiyoji, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda marketing strategiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, innovatsiyalarni joriy etgan korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi va rentabellik darajasi sezilarli darajada yuqori bo'lib, mahsulot tannarxining kamayishi hamda eksport salohiyatining oshishi kuzatiladi. Bu esa innovatsion yondashuvlarning iqtisodiy samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarida innovatsion rivojlanish uchun zarur infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va investitsion muhitdagi ayrim cheklovlar ularning mavjud imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishni qiyinlashtirmoqda.

Mazkur holat innovatsion rivojlanishni kompleks yondashuv asosida tashkil etishni talab etadi. Xususan, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, raqamli va resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda marketing va logistika tizimlarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan yaratilayotgan institutsional sharoitlar va qo'llab-quvvatlash dasturlaridan samarali foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, innovatsion yondashuvlar asosida oziq-ovqat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiyotda yuqori qo'shimcha qiymat yaratish hamda milliy va xalqaro bozorlarda mustahkam o'rin egallashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azamatov, O. Kichik Korxonalarining Innovatsion Faolligi Va Raqobatbardoshligi: Rivojlanayotgan Iqtisodiyotlar Misolida. *Green Economy and Development*, 3(12), 668362.
2. O'zbekiston respublikasi qonunchilik ma'lumotlar milliy bazasi(lex.uz).
3. Soibov, N. Moliyaviy Barqarorlikni Raqamli Texnologiyalar Bilan Mustahkamlash: Korxonalar Darajasidagi Yondashuvlar. *Green Economy and Development*, 3(4), 665983.
4. Baxtiyor o'g'li, I. B. (2024). O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarida innovatsiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaralari. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(11), 213-219.
5. Ni, G., Xu, H., Cui, Q., Qiao, Y., Zhang, Z., Li, H., & Hickey, P. J. (2020). Influence mechanism of organizational flexibility on enterprise competitiveness: The mediating role of organizational innovation. *Sustainability*, 13(1), 176.
6. Kudrina, O., & Kuziv, O. Organizational and economic mechanism of innovative transformation of the region to enhance competitiveness.
7. Lubnina, A. A., Misbakhova, C. A., Arestova, E. N., Isaychev, V., Pavlikov, S., Kozin, M., & Alenina, E. (2017). Innovative strategy for increasing competitiveness in organizational structures of industrial enterprises. *Eurasian journal of analytical chemistry*, 12(7b), 1563.
8. Adilbekovich, T. A. (2025). Ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirishda ichki qarama-qarshiliklar va ularni boshqarish mexanizmlari. *Ta'lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali*, 1(7), 244-248.



9. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari(stat.uz)
10. Ibrohimov, B. (2024). Innovatsion faoliyatni amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlari duch keladigan muammolar tahlili. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(12).
11. Shuhrat o'g'li, N. N., & Toshboy o'g'li, A. A. (2025). Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishda innovatsion yondashuvlar. Nauchnyy Impuls, 4(39), 368-375.
12. O'rinboyevna, M. M. M. (2025). Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini raqamli texnologiyalar asosida oshirish mexanizmlari. Shokh library, 1(11).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100